

“FUTUH ASH-SHOM” ASARINING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15184200>

Jambilov Mansur Rasuljonovich

“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA” kafedrasi

III bosqich tayanch doktoranti,

Toshkent islom instituti

“Hadis va Islom tarxi fanlari”

kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Imom Voqidiyning ilmiy merosi, “Futuh ash-Shom asari”

Kalit so‘zlar

Muhammad ibn Umar Voqidiy, uslublar, manhaj va turli ilmlar.

“Futuh ash-Shom” kitobining ahamiyati uning islomiy fathlar borasida asosiy manbaalardan biri sifatida e‘tiborga olinishida namoyon bo‘ladi. Bu quyidagilar asosida ko‘rinadi:

1. Muallifning mag‘oziy, siyrat, tarix va fathlar borasida mohirligi

Bu Hamaviy, Tag‘ribardiy va Zahabiy kabi olimlar u borada aytgan gaplarida yaqqol ko‘rinadi.

Hamaviy: “...Bu uning mag‘oziy, siyrat, xabarlar, voqea va hodisalarni o‘ta kuchli darajada yodda saqlab qolganligi sabablidir”⁴⁸, Tag‘ribardiy: “U mag‘oziy, siyrat, fathlar va hodisalar borasida olim va peshvo bo‘lgan”⁴⁹, Zahabiy: “U islom ishi borasida insonlarning bilimdoni bo‘lgan”⁵⁰ deya keltirib o‘tgan.

2. Bu asar fathlar borasida yozilgan kitoblar orasida asosiy manbaalarning peshqadami hisoblanadi.

Fathlar borasida asar yozgan tarixchilarning barchasi undan keyingi davrda yashagan. Misol tariqasida imom Balozuriy va uning “Futuh al-buldon” asari, Azdiy va uning “Tarixi futuh ash-Shom” asari. Bunga yana doktor Abdulaziz Solim “Futuh kitoblarining peshqadamlaridan biri “Futuh ash-Shom va Misr” asari

⁴⁸ Yaqut Hamaviy. Mu‘jam al-adibba.-Misr: Matba‘a dar al-Ma‘mun, (yili ko‘rsatilmagan).-J.V.-B.392

⁴⁹ Ibn Tag‘ribardiy Jamoliddin Abulmahosin. An-nujum az-zaxiro fi muluki Misro val Qohiro.-Qohira/Misr: Al-muassasa al-misriyya al-amma lit ta‘lif van nashr, 1383/1963. J.II.-B.184.

⁵⁰ Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. D.Umar Abdusalom Tadmuriy tahqiqi. Tarix al-islam va vafayat al-mashahir val a‘lam.-Bayrut/Livan: Dar al-kitab al-arabiy, (Yili ko‘rsatilmagan).-J.XV.-B.365

bo'lib, u Muhammad ibn Umar Voqidiyga mansubdir" degan gapi bilan ishora qilib o'tgan.⁵¹

3. Shuningdek, ushbu asarning tarixiy ahamiyatidan tashqari katta adabiy va lug'aviy ahamiyati ham mavjud. Bu asar o'z ichiga ulkan she'riy boylikni jamlagan bo'lib, bu islomning avvalida she'r aytish oz bo'lgan deya bildiriluvchi fikrlarni o'zgartirishga yetarlicha asos bo'ladi.

Bunga qo'shimcha tarzda bu asar ushbu nasriy-adabiy fanlarning tarixi borasida tirik halqa hisoblanadigan hamda ushbu fanlarning taraqqiyot va rivoji borasida tadqiqotni amalga oshirishga hissa qo'sha oladigan xutbalar, o'zaro suhbatlar va risolalar bilan boyitilgan.⁵²

4. Bu asarning ahamiyati Voqidiy masalalarini batafsil keltirib, ishlar va so'zlarning daqiq jihatlarini zikr qilganligi va uni haqiqiy va istirsol⁵³ uslubida bayon qilib bergan paytda namoyon bo'ladi. Bu tafsilotlar borasidagi firklar kitobning muqaddimasida bayon qilingan.⁵⁴

Darhaqiqat, Muhammad Vatr ham Voqidiyning "Futuh ash-Shom" asarining ahamiyati haqida "Darhaqiqat, Voqidiy undan oldin o'tgan va undan keyin kelgan tarixchilar unutgan idoraviy isharni ham batafsil bayon qilgan. Haqiqatda u bu mutaxassislikning qoidalarini belgilab bergan va uning ilk poydevorini bino qilgan shaxsdir. Zero, u o'zi tasavvur qilmasdan, o'zi u haqda asar yozayotganligini bilmasdan idoraviy ishlarni tartib va intizomga solish yo'llarini zikr qilgan. Biroq u bahs va tahlil qilayotgan juz'iy tafsilotlar uni harbiy va idoraviy ilm borasida asar yozish ishiga undagan" deya fikr bildirgan.⁵⁵

Boshqa tomondan Husayn Munis "Bu borada Voqidiy o'zi maqsad qilmagan holda harbiy sohaning suratini tasavvur qilishga yordam beradigan ba'zi ishoralarni bizga bayon qili bergan. U aksar holatlarda sariyya yo'l olgan shaharning geografik joylashuvini ta'yin qilishga intilgan" deya keltirgan. Husayn Munisning fikricha, janglar va hodisalardan aksariyati borasida geografik nuqtai nazardan Voqidiy keltirgan rivoyatlardan katta manfaat bor.⁵⁶

Voqidiyning asari muhim manbaa ekanligi sababli Arshid Yusuf Humaydon ikki xalifa Abu Bakr va Umar roziyallohu anhumoning Shom fathini rejalashtirishi

⁵¹ Sayyid Abdulaziz Solim. At-tarix val muarrixun al-arab.-Qohira/Misr: Dar an-nahza al-arabiyyalit taba'ati.1993.-B.115.

⁵² Muhammad Zohir Vatr. Ar-riyada fiy hurubi va futuhati Abi Bakr as-Siddiq.-Bayrut/Livan: Ittihad al-kuttab al-arab, 1999.-B.39.

⁵³ Istirsol - bu gap tuzishdagi bir uslub bo'lib, u biror hodisani bayon qilishda erkinlik uslubini qo'llash va muxotobning rag'batini oshiruvchi gaplardan foydalanishdir.

⁵⁴ Muhammad Zohir Vatr. Ar-riyada fiy hurubi va futuhati Abi Bakr as-Siddiq.-Bayrut/Livan: Ittihad al-kuttab al-arab, 1999.-B.39.

⁵⁵ Muhammad Zohir Vatr. Ar-riyada fiy hurubi va futuhati Abi Bakr as-Siddiq.-Bayrut/Livan: Ittihad al-kuttab al-arab, 1999.-B.40.

⁵⁶ Muhammad Ikrima. "Al-muarrix al-arabiy" jurnali. (Al-amanat al-amma littihad al-muarrixin al-arab).-Bag'dod/Iroq: Matbaa al-irshad, (Yili ko'rsatilmagan).-B.137.

va uni amalga oshirishi haqida ilmiy tadqiqot ishini qilgan. U bu tadqiqotda keltirgan harbiy sohaga tegishli ma'lumotlarning aksariyatini Voqidiyning "Futuh ash-Shom" asaridan olgan.⁵⁷

Shuningdek, Salohiddin Amin Toha ham tadqiqot ishi bajarib, uni "Ajnadin jangi va uning Shom fathiga ta'siri" deb nomladi. U bu tadqiqot ishida tayangan manbalardan biri Voqidiyning "Futuh ash-Shom" asaridir.⁵⁸ Ammo Muhammad Aqiyliy "Quds fathi va uning islomiy e'tibordan ahamiyati" nomli tadqiqot ishini qilgan. U ham bu tadqiqot ishini yozishda tayangan asosiy manbalardan biri "Futuh ash-Shom" asari bo'lgan.

5. Shuningdek, bu asarning ahamiyati borasida tadqiqotchi Jirjiy Zaydon "Futuh ash-Shom" kitobida fath borasida yozilgan asarlarning boshqasida topilmaydigan haqiqatlar bor. Bu haqiqatlar va fath borasidagi boshqa asarlar o'z ichiga olmagan haqiqatlar borasida izlanib ko'rib, bildimki, boshqa tarixiy manbaalar ham bu asarda kelgan haqiqatlarni ta'kidlagan" deydi.⁵⁹

Voqidiyning ushbu asarida kelgan haqiqatlardan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Voqidiyning keltirishicha, Abu Ubayda ibn Jarroh Xolid ibn Validga xalifa Abu Bakr Siddiq uni unga amir qilib saylagan vaqtda: "Ey, Abu Sulaymon! Abu Bakr Siddiq seni menga muqaddam qo'ygan va seni menga amir qilib saylab yozgan maktubini ko'rib xursand bo'ldim va qalbimda senga nisbatan gina-adovat tuymadim. Chuni men urush bobida sening qanchalik salohiyatga ega ekanligingni bilaman" dedi. Xolid ibn Valid: "Allohga qasamki, biror ish qilgan bo'lsam, faqat sening maslahating bilan qildim. Allohga qasamki, agar rahbar biror ishga buyurmasa, men u ishni hech qachon qilmas edim. Chunki sen islomga mendan avvalroq kirgansan" dedi.⁶⁰

"Futuh ash-Shom" asarining bu matnidan ko'rinadiki, Abu Ubayda ibn Jarroh roziyallohu anhunung islomga kirishi Xolid ibn Valid roziyallohu anhunung islomga kirishidan oldin bo'lgan. Mana shu fathlar borasidagi kitoblardan boshqa turli xil tarixiy manbaalar tasdiqlagan haqiqatdir. Darhaqiqat, Abu Ubayda roziyallohu anhu Rosululloh Arqamning hovlisiga kirishidan oldin islomni qabul qilgan va hijratning ikkinchi yilida Habashiston diyoriga hijrat qilgan. So'ngra kelib, badr, Uhud, Xandaq va boshqa g'azotlarda Rosululloh bilan birga qatnashgan.⁶¹

⁵⁷ Arshid Yusuf Humaydon. "Ikki xalifa Abu Bakr va Umarning Shom diyorini fath qilish rejasi" nomli maqola. "Saudiya Arabistoni tarixi" jurnali.-Saudiya Arabistoni: 2001.-B.159.

⁵⁸ Ma'raka Ajnadin va asaruha fiy futuh ash-Shom. (Tadqiqot ishi). "Al-muarrix al-arabiy" jurnali. 30-nashr.-B.273.

⁵⁹ Jerjiy Zaydon. Tarixi adab al-lug'at al-arabiyya.-Qohira/Misr: Dar al-hilal, 1956. -J.II.-B.454.

⁶⁰ Muhammad ibn Umar Voqidiy. Futuh ash-Shom.-Ummon/Iordaniya: Maktabat al-muhtasib, (Yili ko'rsatilmagan) - J.I.-B.35.

⁶¹ Ali ibn Abulkaram ibn Muhammad Shayboniy. Asad al-g'oba fiy ma'rifat as-sohaba.-Bayrut/Livan: Daru ihya at-turo, 1370/1937.-J.II.-B.135.

Ammo Xolid ibn Valid roziyallohu anhuning islomga kirishi va hijratga chiqqanligi borasida ixtilof qilingan. Ba'zi olimlarning aytishicha, uning islomni qabul qilishi hijriy beshinchi yilda Rosululloh Banu qurayza g'azotidan qaytganlaridan so'ng bo'lgan. Ba'zilarning aytishicha, hijratning oltinchi yilida bo'lgan. Ba'zi olimlar esa, "U Hudaybiya kunida Rosulullohning ulovlari ustida edi. Hudaybiya fathi esa, hijratning oltinchi yilida bo'lgan" deyishadi⁶². Biroq bu boradagi sahih gap – uning islomni qabul qilishi Hudaybiya sulhi va Makka fathi orasidagi muddatda bo'lgan.⁶³

Voqidiy o'zining kitobida xalifa Umar ibn Xattob xalifalikka hijratning o'n uchinchi yilida ta'yinlanganligiga ishora qilgan.⁶⁴ Mana shu fathlar borasidagi kitobardan boshqa tarixiy manbaalar tasdiqlagan haqiqatdir. Tarixiy manbaalar ham unga xalifalik hijratning o'n uchinchi yilida Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning buyrug'i bilan topshirilganligini keltirgan.⁶⁵

Voqidiy asarida Rim lashkarining qo'mondoni Barg'unning musulmonlar borasida: "Albatta, ularga taslim bo'lgan kishi joni, ahli va molini omonlikda saqlagan bo'ladi..." degan gapini keltirib o'tgan.⁶⁶ Bu Rosululloh sollollohu alayhi vasallam ning: **"Men insonlarga qarshi toki ular Allohdan o'zga iloh yo'q, deya guvohlik berishlari va men va men keltirgan shariatga iymon keltirmagunlariga qadar urush qilishga buyurildim. Agarda ular bu ishni qilsalar, mendan qonlari-yu mollarini saqlagan bo'ladilar. Ammo islom haqqi bundan mustasno. Va ularning hisobi Allohning zimmasigadir"** degan so'zlarining ma'nosidadir.

Boshqa bir rivoyatda Rosululloh sollollohu alayhi vasallam: **"Men insonlar toki Allohdan o'zga iloh yo'q, Muhammad Allohning bandasi va elchisidir, deya guvohlik bermagunlariga qadar ularga urush qilishga buyurildim. Agar ular Allohdan o'zga iloh yo'q, Muhammad Allohning elchisidir, deya guvohlik berishsa, namozimizni o'qishsa va biz so'yg'an jonliqlarimizdan yeyishsa, batahqiq, bizga ularning qonlari-yu mollari harom qilingay. Ammo qonlari-yu mollarining haqqi bundan mustasno"**⁶⁷ dedilar.

Mustafo Bag'oning keltirishicha, ikki shahodat ustida cheklanish jon va molni saqlab qolish uchun kifoyadir. Ma'lumki, Rosululloh sollollohu alayhi vasallam

⁶² Muhammad ibn Mani' al-Basriy az-Zuhriy (Ibn Sa'd). at-tabaqot al-kubro.-Bayrut/Livan: Daru Sodik, 1405/1985. – J.VII.-B.384.

⁶³ Yusuf ibn Abdulloh al-Qurtubiy (Ibn Abdullarr). Shayx Ali Muavvaz va shayx Odil Ahmad Abdulmaqsud tahqiq. Al-isti'yab fiy ma'rifat al-as'hob.-Bayrut/Livan: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1415/1995.-J.II.-B.427.

⁶⁴ Muhammad ibn Umar Voqidiy. Futuh ash-Shom.-Ummon/Iordaniya: Maktabat al-muhtasib, (Yili ko'rsatilmagan) - J.I.-B.88.

⁶⁵ Ali ibn Abulkaram ibn Muhammad Shayboniy. Asad al-g'oba fiy ma'rifat as-sohaba.-Bayrut/Livan: Daru ihya at-turos, 1370/1937.-J.II.-B.458.

⁶⁶ Muhammad ibn Umar Voqidiy. Futuh ash-Shom.-Ummon/Iordaniya: Maktabat al-muhtasib, (Yili ko'rsatilmagan) - J.II.-B.121.

⁶⁷ Ismoil ibn Ibrohim Ju'fiy Buxoriy. Mustafo Bag'o tahqiqi. Sahih al-Buxoriy.-Bayrut/Livan: Daru Ibn Kasir, 1407/1987.-B.87.

islomga kirmoqchi bo'lgan kishi uchun ikki shahodatni qabul qilar va shu sababli uning jonini saqlab, unga musulmon kishi sifatida muomala qilar edilar.⁶⁸

Bunga ko'plab sahih qavliy hadislar bilan ham dalil keltirish mumkin. Bu hadislarida namozni qoim qilish va zakotni ado qilish haqida zikr qilinmagan. Darhaqiqat, ikki sahih to'plamda kelgan: **"Men insonlarga qarshi toki ular Allohdan o'zga iloh yo'q, deya guvohlik berishlari va men va men keltirgan shariatga iymon keltirmaganlariga qadar urush qilishga buyurildim. Kim "Allohdan o'zga iloh yo'q" desa, mendan moli va jonini saqlabdi. Ammo islom haqqi bundan mustasno. Va uning hisobi Allohning zimmasigadir"** hadisi bilan dalil keltirilgan.⁶⁹

Voqidiy Suroqa ibn Omirning: "Ey, musulmonlar jamoasi! Xamr ichishni qo'yinglar. Chunki u aqlarni ketkazadi va gunohni keltirib chiqaradi. Rosululloh sollollohu alayhi vasallam xamr ichuvchini hattoki, xamr olib keluvchi va unga xamr olib kelinuvchini ham la'natlaganlar" degan so'zini keltirgan.⁷⁰

Aytamizki, bu haqiqatdir. Rosululloh sollollohu alayhi vasallamdan u zotning: **"Alloh xamrni, uni ichuvchi, quyib beruvchi, sotuvchi, sotib oluvchi, siqib tayyorlovchi, siqib tayyorlab berilishini talab qiluvchi, uni olib keluvchi va unga xamr olib kelinuvchini la'natladi"** degan so'zlari kelgan.⁷¹

Doktor Vahba Zuhayliy: "Xamrni halol sanovchi kishi kofir bo'ladi. chunki uning haromligi qat'iy dalil bilan sobit bo'lgan. U Qur'oni karim oyatida kelgan:

(يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا إِنَّمَا الْخَمْرُ وَالْمَيْسِرُ وَالْأَنْصَابُ وَالْأَزْلَامُ رِجْسٌ مِنْ عَمَلِ الشَّيْطَانِ فَاجْتَنِبُوهُ لَعَلَّكُمْ تُفْلِحُونَ)

"Ey, iymon keltirganlar! Albatta, may (mast qiluvchi ichimliklar), qimor, but-sanamlarva (fol ochadigan) cho'plar shaytonning ishidan iborat iflosliklardirki, undan chetlaningiz! Shoyad (shunda) najot topsangiz"⁷² oyati bunga dalildir. Musulmon kishiga sotish, sotib olish, hadya qilish va shu kabi mulk sabablari bilan unga egalik qilish harom bo'ladi. Chunki bularning barchasi xamr bilan manfaatlanishdir. Albatta, u musulmon kishiga manfaati harom bo'lgan narsadir.⁷³

Voqidiy jannat bashorati berilgan o'nta sahobalarning biri Said ibn Jubayr ekanligiga ishora qilgan.⁷⁴ Bu haqiqat bo'lib, uni tarixiy manbaalar tasdiqlagan.

⁶⁸ Mustafu Bag'o. Al-vafiy fi sharh al-arbaiyn an-navaviyya. Muassasat ulum al-Qur'on. 1982.-B.44.

⁶⁹ Mustafu Bag'o. Al-vafiy fi sharh al-arbaiyn an-navaviyya. Muassasat ulum al-Qur'on. 1982.-B.44.

⁷⁰ Muhammad ibn Umar Voqidiy. Futuh ash-Shom.-Ummon/Iordaniya: Maktabat al-muhtasib, (Yili ko'rsatilmagan) - J.II.-B.99.

⁷¹ Abu Dovud Sulaymon ibn Ash'as Sijistoni. Muhammad Muhiddin Abdulhamid tahqiqi. Sunani Abu Dovud.- Bayrut/Livan: ar al-fikr, (Yili ko'rsatilmagan). -J.III.-B.326.

⁷² Moida surasi 5-oyat.

⁷³ Vahba Zuhayliy. Al-fiqh al-islamiy va adillatuh.-Damashq/Suriya: Dar al-fikr, 1967.-J.VII.-B.426.

⁷⁴ Muhammad ibn Umar Voqidiy. Futuh ash-Shom.-Ummon/Iordaniya: Maktabat al-muhtasib, (Yili ko'rsatilmagan) - J.II.-B.304.

Ulardan Ibn Sa'dning "Tabaqot al-kubro"⁷⁵, Ibn Abdulbarrning "Al-istiy'ab fiy ma'rifat al-as'hob"⁷⁶, Ibn Asokirning "Tarixi Damashq"⁷⁷, Ibn Asirning "Asad al-g'oba fiy ma'rifat as-sohaba"⁷⁸, Shamsiddin Zahabiyning "Siyari a'lam an-nubalo"⁷⁹ va Ibn Hajar Asqaloniyning "Al-isoba fiy ma'rifat as-sohaba"⁸⁰ asaridir.

Shuningdek, Voqidiy Alloh taoloning:

(أَمَّنْ هُوَ قَانِتٌ آنَاءَ اللَّيْلِ سَاجِدًا وَقَانِمًا يَحْذَرُ الْآخِرَةَ وَيَرْجُو رَحْمَةً رَبِّهِ)

"Yoki kechalari sajda qilgan va tik turgan holda ibodat qiluvchi, oxiratdan qo'rqadigan va Parvardigorining rahmatidan umid qiladigan kishi (bilan boshqalar barobarmi?!)"⁸¹ degan so'zi xalifa Usmon ibn Affon roziyallohu anhu borasida nozil bo'lganligiga ishora qilgan.⁸² Mana shu ham bir asosli gap bo'lib, uni tafsir kitoblari tasdiqlagan. Bunday tafsirlar jumlasiga Sam'oniyning "Tafsir al-Qur'on"⁸³, Shavkoniyning "Fath al-qodir"⁸⁴, Suyutiyning "Ad-dur al-mansur fita'vili bil-ma'sur"⁸⁵, Ibn Jizziyning "At-tashil li ulum at-tanzil"⁸⁶, Suyutiyning "Lubab an-nuqul"⁸⁷, Shayx Vohidiyning "Asbab an-nuzul"⁸⁸, Sa'olibiyning "Al-javahir fiy tafsir al-Qur'on"⁸⁹ asarlarini keltirish mumkin.

Shuningdek, Voqidiy sahoba Iyoz ibn G'anam roziyallohu anhuning: "Darhaqiqat, Alloh taolo bizni islom bilan aziz qildi, bizni zalolatdan Muhammad sollollohu alayhi vasallam ilan qutqarib, qalblarimizdan gina, adovat va havoyi nafsga ergashishdek yomon illatlarni olib tashladi. Alloh taolo: **"Ulug'lik ridoyim, kibriyo izerimdir. Kimdakim bu ikkisi borasida men bilan bellashmoqchi**

⁷⁵ Muhammad ibn Mani' al-Basriy az-Zuhriy (Ibn Sa'd). at-tabaqot al-kubro.-Bayrut/Livan: Daru Sodir, 1405/1985. -J. III.-B.383.

⁷⁶ Yusuf ibn Abdulloh al-Qurtubiy (Ibn Abdulbarr). Shayx Ali Muavvaz va shayx Odil Ahmad Abdulmaqsud tahqiq. Al-istiy'ab fiy ma'rifat al-as'hob.-Bayrut/Livan: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1415/1995.-J.II.-B.456.

⁷⁷ Ali ibn Husayn ibn Hibatulloh (Ibn Asokir). Umar ibn G'aroma Amroviy tahqiqi. Tarixi madinati Damashq.-Bayrut/Livan: Dar al-fikr, 1415/1994. -J.XXI.-B.62.

⁷⁸ Ali ibn Abulkaram ibn Muhammad Shayboniy. Asad al-g'oba fiy ma'rifat as-sohaba.-Bayrut/Livan: Daru ihya at-turos, 1370/1937.-J.I.-B.441.

⁷⁹ Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Shuayb Arnaut va Husayn al-Asad tahqiqi. Siyari a'lam an-nubalo.-Bayrut: Muassasat ar-risala, 1401/1981. -J.II.-B.615.

⁸⁰ (Ibn Hajar) Ahmad ibn Ali Asqaloni. Al-isoba fiy tamyiz as-sohaba.-Bayrut/Livan: Dar al-fikr, 1398/1978.-J.I.-B.124.

⁸¹ Zumar surasi 9-oyat.

⁸² Muhammad ibn Umar Voqidiy. Futuh ash-Shom.-Ummon/Iordaniya: Maktabat al-muhtasib, (Yili ko'rsatilmagan) -J.II.-B.207.

⁸³ Abulmuzaffar Mansur ibn Muhammad Sam'oni. Yosir ibn Ibrohim va G'unaym ibn Abbos G'unaym tahqiqi.-Riyoz/Saudiya Arabistoni: Dar al-vatan, 1418/1997.-J.IV.-B.461.

⁸⁴ Muhammad ibn Ali ibn Muhammad Shavkoni. Fath al-qadir al-jami' bayna fannay ar-rivaya vad diroya min ilm at-tafsir.-Bayrut/Livan: Dar al-xayr, 1413/1992.-J.IV.-B.646.

⁸⁵ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyuti. Ad-durr al-mansur fit tafsir bil ma'sur.-Bayrut/Livan: Dar al-fikr, 1403/1982.-J.VIII.-B.437.

⁸⁶ Ibn Jizziy Muhammad ibn Ahmad G'arnotiy. At-tas'hil li ulum at-tanzil.-Dar al-kitab al-arabiy, 1393/1932.-J.I.-B.1956.

⁸⁷ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyuti. Lubab an-nuqul fiy asbab an-nuzul.-Bayrut/Livan: Dar ihya al-ulum, 1400/1979.-J.I.-B.184.

⁸⁸ Abul Hasan Ali ibn Ahmad Naysoburiy Vohidiy. Kamol Basyuniy Zag'lul tahqiqi. Asbab an-nuzul.-Bayrut/Livan: Dar al-kutub al-ilmiyya, (Yili ko'rsatilmagan).-J.I.-B.277.

⁸⁹ Abdurahmon ibn Muhammad ibn Maxluf Saolibi. Al-javahir fiy tafsir al-Qur'an.-Bayrut/Livan: Muassasat al-ilmiyya lilmatbuat, (Yili ko'rsatilmagan). -J.IV.-B.49.

bo'lsa, uni halok qilaman. Bunga hech e'tibor qilmayman" deydi" deb aytgan gapini keltirgan.⁹⁰

Albatta, Iyoz ibn G'anam Rosulullohning yuborilishi insonlarni johiliyat va zalolatdan xalos qilish ekanligi borasida aytgan gapi hech bir ixtilofni qabul qilmaydigan haq gapdir. Bunga dalil sifatida Rosululloh sollollohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan hadisda u zot: **"Ey, ansorlar jamoasi! Nima bilan meni mamnun qila olasizlar?! Axir men zalolatda bo'lgan holingizda sizlarga kelib, sizlarni alloh men tufayli hidoyatga boshlamadimi? Men sizlar bir-biringizga dushman bo'lgan holingizda kelib, Alloh men tufayli sizlarning qalblaringizni bir-biriga ulfat qilib qo'ymadimi?"**, - dedilar. Ansorlar: "Ha, albatta! Ey, Allohning rosuli!" deyishdi.⁹¹

Voqidiy rohimahulloh Xolid ibn Valid va Rim lashkarining qo'mondonlaridan biri Mohonning o'rtasida kechgan suhbatni keltirib o'tgan. Mohon: "Bizga yetgan xabarlarga ko'ra sizlar johil ta'magir va ba'zilaringiz ba'zilaringiz ustiga hujum qiladigan, ba'zingiz ba'zingizning molini tortib oladigan aqlsiz kishilar ekansiz" dedi. Shunda Xolid ibn Valid roziyallohu anhu unga: "Bizlarning aksasiyatimiz shunday edi. Biroq, Alloh taolo bizga nabiiyimiz Muhammadni yuborib, bizni hidoyatga boshladi, bizga yo'limizni tanitdi va yaxshilikni yomonlikdan, hidoyatni zalolatdan ajratib olishni bizga o'rgatdi" dedi.⁹²

Shuningdek, musulmonlar Rosululloh ularga: **"Bir-birlaringizga hasad qilmanglar, bir-birlaringiz bilan torishmanglar, bir-birlaringizga g'azab qilmanglar, sizlarning biringiz boshqasining savdosi ustiga savdo qilmasin. Allohning bir-biriga birodar bandalari bo'linglar. Musulmon musulmonning birodardir, unga zulm qilmaydi, uni yordamsiz qoldirmaydi, unga yolg'on gapirmaydi va uni haqoratlamaydi. (Ko'ksilariga uch marotab ishora qilib) Taqvo bu yerda bo'ladi. Kishiga yomon ekanligiga u o'zining musulmon birodarini haqoratlashi kifoyadir. Har bir musulmonning qoni, moli va obro'si boshqa musulmonga haromdir"**⁹³ deya ularni gina-adovat, hasad va shu kabi ishlardan qaytargan vaqtda, u zotning buyrug'iga bo'ysunishdi. Darhaqiqat, musulmonlar Nabiy sollollohu alayhi vasallamning ko'rsatmalari asosida hayot kechirishdi. Sahobalarning hayoti ham bunga dalil bo'ladigan voqea va holatlarga to'la.⁹⁴

⁹⁰ Muhammad ibn Umar Voqidiy. Futuh ash-Shom.-Ummon/Iordaniya: Maktabat al-muhtasib, (Yili ko'rsatilmagan) - J.II.-B.113.

⁹¹ Ahmad ibn Shuayb Abu Abdurahmon. Abdulg'affor Sulaymon Bundariy tahqiqi. Sunani Nasoiy.-Qohira/Misr: Mustafu Halabiy nashriyoti, 1383/1964.-B.91.

⁹² Muhammad ibn Umar Voqidiy. Futuh ash-Shom.-Ummon/Iordaniya: Maktabat al-muhtasib, (Yili ko'rsatilmagan) - J.I.-B.177.

⁹³ Sahihi Muslim. "Musulmonga zulm qilishning haromligi" haqidagi bob. Hadis raqami 2564.

⁹⁴ Muhammad Yusuf Kandehlaviy. Hayat as-sohaba.-Qohira/Misr: Daru Usoma, (Yili ko'rsatilmagan). -J.I, II, III.

Ulug'lik va kibriyo Alloh taoloning sifatlaridan ekanligiga aloqador narsalar haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu ham bir haqiqat bo'lib, hadisi qudsiyda Alloh taoloning o'zi ham buni ta'kidlagan. **"Kibriyo ridoyim va ulug'lik izarimdir. Kim bu ikkisidan birortasi borasida men bilan bellashsa, uni do'zahga tashlayman"**

6. "Futuh ash-Shom" asarining ahamiyatiga dalillardan biri shuki, hamasr bo'lgan ba'zilar o'zlarining keltirgan ma'lumotlarining ba'zisini ushbu asardan olishgan. Ular sirasiga Ahmad Shalabiy⁹⁵, Javvod Ali⁹⁶, Ali Sallobiy⁹⁷ va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Edvard Van Dyuk bu asar haqida gapirib: "Unga (Voqidiyga) "Tarixi Futuh ash-Shom" asari mansubdir. Bu asar manfaati ko'p asardir" deydi.⁹⁸

Bayon Nuvayhiz Hut esa, bu asar o'n ikki asrdan buyon zamonaviy ta'lim dargohlarida og'zaki tarix borasidagi asarlar uchun namuna hisoblanadi.⁹⁹ Shuningdek, tadqiqotchi bu asarning ahamiyati Voqidiy fathlar haqidagi xabarlarini yozishda bu xabarlarini naql qilgan siqa (ishonchli) roviylarga tayanganligida namoyon bo'lishiga ishora qilgan.¹⁰⁰

Xulosa o'rnida keltirish mumkinki, bu asarning tarixiy ahamiyatidan tashqari adabiy, idoraviy, fiqhiy hamda harbiy sohaga doir ahamiyati ham mavjud. Bunga dalil sifatida bu asarning ko'plab yozuvchi va tadqiqotchilar uchun asosiy manbaa sifatida e'tiborga sazovor ekanligini keltirishimiz mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlar kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2016 yil 19 oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashi yig'ilishidagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2022 yil 12 noyabr.
3. V.M.Zaporozhets. The Seljuks. – Hannover: the European Academy of Natural Sciences e.V. , 2012. – 321 p.
4. Ibn Asir. الكامل في التاريخ (Al-Komil fit-tarix), VIII juz. – Beirut-Lebanon: Dar Al-Kotob Al-Ilmiyah, 2003. – 532 b.

⁹⁵ Ahmad Shalabiy. Mavsu'at at-tarix al-arabiy.-Qohira/Misr: Maktabat an-nahza al-misriyya, 1993.-J.I.-B.27,31,298.

⁹⁶ Ali Javvod. Al-mufasssal fiy tarix al-arab qobla al-islam.-Bag'dod/Iroq: Bag'dod universiteti nashriyoti, 1993.-J.V.-B.324.

⁹⁷ Ali Sallobiy. Advla al-umaviyya avamil al-inhiyar.-Qohira/Misr: Dar at-turos, 2003.-B.69.

⁹⁸ Edvard Van Dyuk. Iktifa al-qanu' bima huva matbu'.-Bayrut/Livan: Daru Sodir, (Yili ko'rsatilmagan).-J.I.-B.65..

⁹⁹ Bayon Hut Nuvayhiz. Falastin at-tarix as-siyasiy min ahd al-kan'onin hatta al-qorn al-ishriyn.-Bayrut/Livan: Dar al-istiqlal, 1991.-B.83.

¹⁰⁰ Bayon Hut Nuvayhiz. Falastin at-tarix as-siyasiy min ahd al-kan'onin hatta al-qorn al-ishriyn.-Bayrut/Livan: Dar al-istiqlal, 1991.-B..

5. Imom al-Hofiz Abul Fado Ismoil ibn Kasir al-Qurayshiy ad-Dimashqiy. البداية و النهاية (Al-Bidayatu van-nihaya). al-Giza (Misr): Hajr, 1998.
6. Maqriziy. السلوك لمعرفة دول الملوك (As-Suluk lima'rifati duvalil-muluk), I juz. Beirut-Lebanon: Dar al-kotob al-ilmiyah, 1997. – 566 b.
7. Shamsuddin Muhammad bin Ahmad Usmon az-Zahabiy. سير أعلام النبلاء (Siyar a'lamu an-nubala), XXIII juz. Beirut-Lebanon: Baytul-afkor ad-davliyya. 2004.
8. Ahmed bin Mahmud. Selçuk-Name, 1-2.cilt. – İstanbul: Kervankibatçılık basın sanayiiveticaret A.Ş., 1977. – 202 s.
9. Ali Sevim. İbnül-Kalânîsinin Zeylû tarih-i Dimaşk adlı eserinde Selçuklularla ilgili bilgiler // Türk tarih belgeleri dergisi. Cilt: XXIX, Sayı: 33. 2008. – S. 1-42
10. Muharrem Kesik. Sultan Alp Arslan'ın Liderlik Vasıfları // İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi, Sayı14. 2014. – S. 43-52.
11. Muhammed Kemaloğlu. XI.-XIII. yüzyıl Türkiye Selçuklu devletinde eğitim-öğretim (medreseler) // Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi. Cilt:2, Sayı:5. 2015. – S. 62-79.
12. Prof. Dr. Muharrem Kesik. Selçuklular tarihi. – İstanbul: İstanbul üniversitesi Açık ve uzaktan eğitim fakültesi, 2010. – 374 s
13. Prof. Dr. Faruk Sümer. Oğuzlar. – Ankara: Ankara üniversitesi basimevi, 1972. – 574 s.
14. Prof. Dr. Osman Turan. Selçuklular Tarihi ve Türk-İslam Medeniyeti. – İstanbul: Turan neşriyat yurdu, 1969. – 492 s.

Internet saytlar:

1. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nodir qo'lyozmalar bo'limi sayti <http://nodir.natlib.uz:8095/uz-Cyrl-UZ>
2. O'zbekiston tarixiy va ilmiy-adabiy manbalar sayti <http://ziyonet.uz/>